

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QO'QON DAVLAT UNIVERSITETI



“TASDIQLAYMAN”
Qo‘qon davlat universiteti
rektori D.Sh.Xodjayeva
29-avgust 2025-yil

MANTIQ

O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	200 000 – San'at va gumanitar fanlar
Ta'lim sohasi:	220 000 – Gumanitar fanlar (tillardan tashqari)
Ta'lim yo'nalishi:	60220500 - Falsafa

Qo‘qon – 2025

Fan / modul kodi MA1112		O'quv yili 2025-2026	Semestr 1/2	ECTS – Kreditlar 6/6
Fan / modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4/4
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Mantiq	60/60	120/120	180/180
2.	I. Fanning mazmuni <i>Fanni o'qitishdan maqsad</i> – talabalarda to'g'ri muhokama yuritishning mantiqiy shakllari va qoidalarini o'zlashtirishga yordam berish, ularning mustaqil fikrlash madaniyatini yuksaltirish; xato fikrlarning paydo bo'lish sabablari bilan tanishtirish hamda ilmiy bilimlarning mantiqiy tuzilishlari hamda ilmiy nazariyalarning mantiqiy qurilishiga doir bilimlarini rivojlantirishdan iborat. <i>Fanning vazifalari</i>- - talabalarda to'g'ri muhokama yuritishning mantiqiy shakllari va qonunlarini o'zlashtirishga yordam berish, ularning mustaqil fikrlash madaniyatini yuksaltirish, xato fikrlarning paydo bo'lish sabablari bilan tanishtirish, to'g'ri xulosa chiqarish, muammolarni yaratish va hal etish, farazlarni ilgari surish va asoslash usullari, qoidalari bilan tanishtirish; talabalarga muloqatda bo'lish va, ayniqsa, savol-javob qilish, bahs yuritish qonun-qoidalarini o'rgatish; ularni ilmiy bilimlarning mantiqiy tuzilishlari hamda ilmiy nazariyalarning mantiqiy qurilishi bilan tanishtirishning ilmiy-amaliy yo'llarini o'rgatish. Fanning yetakchi TOP-300 xalqaro universitetlari dasturi asosida tayyorlanganligi: Falsafa fani dasturi dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalaridan biri bo'lgan University College London universitetining Mantiq fanining o'quv dasturi asosida takomillashtirilgan. Mazkur universitet QS-9 World University Rankings 2024 boyicha 9-o'rinni egallagan bo'lib, ushbu sohada yuqori malakali ilmiy-uslubiy bazaga ega. Dasturda quyidagi asosiy jaihatlar inobatga olingan: Nazariy va amaliy yondashuv uyg'unligi – University College London universitetining Mantiq kursida, fanning asosiy tushunchalari, g'oyalari, nazariyalari va usullarini, shuningdek, jamiyatning tabiati va evolyutsiyasi yo'nalishiga oid zamonaviy va zamonaviy nazariyalarni ko'rib chiqamiz. mantiqiy			

	munozaralar shaxs va jamiyat, insoniyat jamiyati va falsafiy qarashlar o'rtasidagi murakkab munosabatlar nuqtai nazaridan tuzilgan va keng yoritiladi. Xalqaro standartlarga muvofiqlik – dastur xalqaro ta'lim me'yorlari, xususan, ilmiy madaniyat normalari va qoidalarini, dunyoni siyosiy idrok etishning samarali texnologiyalarini, shuningdek, siyosiy voqealarni yoritishning o'ziga xos xususiyatlari, ichki va xalqaro siyosiy kun tartibini ekspert baholash usullari, siyosiy, iqtisodiy, ekologik va boshqa xavf va tahdidlarni aniqlash prinsiplari asosida boyitilgan. Tanqidiy fikrlash va tahlil ko'nikmalarini rivojlantirish – talabalar dunyodagi axborot oqimini siyosiy-tanqidiy idrok etish, mustaqil tahlil qilish, dalillarga tayangan holda xulosa chiqarishni o'rganadilar.
3.	II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: Formal mantiq (1-modul) I SEMESTR. 1-mavzu: Mantiq ilmining predmeti va ahamiyati Tafakkur-mantiq fanining tadqiqot ob'ekti. Tafakkurning bilishda tutgan o'rni va ahamiyati. Tafakkur shakli tushunchasi. Tafakkurning universal mantiqiy shakllari: tushuncha, hukm, xulosa chiqarish. Tafakkur qonuni tushunchasi. Tafakkur qonunlari to'g'ri fikr yuritishning prinsiplari sifatida. Fikrning chinligi va shakl jihatidan to'g'ri qurilishi. Formal mantiq to'g'ri tafakkur strukturasi va qonunlarini formal metodlar yordamida o'rganuvchi fan sifatida. 2-mavzu: Bilish obyektlari va ularning tavsifi Bilish ob'ekti: empirik va nazariy, real va abstrakt ob'ektlar. Buyumlar, hodisalar, jarayonlar. Belgi tushunchasi. Belgining turlari. Kuzatish va nazariy terminlar. 3-mavzu: Tilning mantiqiy tahlili Til axboorot belgilari tizimi sifatida. Tilning funksiyalari. Velgi tushunchasi. Belgining asosiy turlari. Til ifodalarining ashyoviy mazmuni vama'nos. Tilni semiotik tahlil qilishning asosiy yo'nalishlari: semantika, pragmatika, sintaksis. Tabiiy va sun'iy tillar. Nomlash nazariyasining asoslari. Til belgilarining asosiy turalri. 4-mavzu: Tushunchaning mantiqiy strukturasi va asosiy xususiyatlari Tushuncha borliqning aks ettirish shakli sifatida. Tushunchaning tilda ifodalash shakllari. Terminlar va tushunchalar. Bilishda tushunchalarning ahamiyati. Tushunchaning mantiqiy tavsifi. Tushunchalarning mantiqiy strukturasi va asosiy xususiyatlari. Tushunchalarning turlari va ular o'rtasidagi munosabatlar.

5-mavzu: Tushunchalarni tariflash(definitsiya). Tariflash qoidalar

Mantiqda tariflash masalasining qo'yilishi. Tushunchalarni tariflash. Nominal va real tariflar. Aniq va noaniq real tariflar. Aniq real tarifning tuzilishi va turalri. Tariflash mezonlari. Tariflash qoidalar. Tariflashda uchraydigan mantiqiy xatolar. Tariflashning fan va amaliy muhokama yuritishdagi ahamiyati. Tariflashga nisbatan qo'yiladigan uslubiy talablar.

6-mavzu. Mulohaza(hukm)ning mantiqiy tahlili. Oddiy mulohazalar o`rtasidagi munosabatlar

Tushunchalarni bo'lish. Bo'lishning tuzilishi: bo'linuvchi tushuncha, bo'lish asosi, bo'lish a'zolari. Bo'lishning turlari: belgining o'zgarishiga bog'liq holda bo'lish va dixotomik bo'lish. Oddiy va bosqichli bo'lish. Nolga bo'lish masalasi va unga yondashish usullari. Bo'lish qoidalar va bo'lishda uchraydigan mantiqiy xatolar

7-mavzu: Murakkab mulohazalar va ularning chin bo'lish shartlari. Mulohazalarni inkor qilish.

Mulohazaning umumiy mantiqiy tavsifi va bo'lishdagi roli. Mulohaza va gap. Mulohaza va savol. Oddiy va murakkab mulohazalar. Oddiy mulohazalarning mantiqiy strukturasi. Oddiy mulohazalarda terminlar hajmi. Taqqoslanadigan va taqqoslanmaydigan tushunchalar. Taqqoslanadigan mulohazalar o'rtasidagi munosabatlar. Mantiqiy kvadrat.

8-mavzu: Formal mantiqning asosiy qonunlari(prinsiplari)

Murakkab mulohazalarning tuzilishi. Dizyunksiya va konyunksiya. SHartli va ekvivalent mulohazalar. Murakkab mulohazalarning chin bo'lish shartlari. CHinlik jadvallari va tavalogiyalar. Mulohazalarni inkor qilish amalining mohiyati. Mulohazalarni ichki va tashqi inkor qilish.

9-mavzu: Xulosa chiqarish tafakkur shakli sifatida. Bevosita xulosa chiqarish

Modallik tushunchasi. Modal operatorlar va modal mulohazalar. Aletik modal mulohazalar. Epistemik modal mulohazalar. Aksiologik modal mulohazalar. Vaqt modalligini ifodalovchi mulohazalar. Analitik va sintetik mulohazalar. Normativ mulohazalarni ifodalovchi modal operatorlar. Normalarning strukturaviy elementlari.

10-mavzu: Deduktiv xulosa chiqarish. Oddiy qat'iy sillogizm

To'g'ri tafakkurning asosiy belgilari: fikrning aniq ma'noga ega bo'lishi, izchil va ziddiyatsiz qurilishi, etarli asosga ega bo'lishi. Tafakkur qonunlarining mazmuni va o'zaro aloqasi. Ayniyat qonuni. Nozidlik qonuni. Uchinchisi istesno qonuni. Etarli asos qonuni.

11-mavzu: Mukammal va nomukammal sillogizmlar

Mukammal va nomukammal sillogizmlar. Nomukammal sillogizmlarni mukammal sillogizm ko‘rinishiga keltirish qoidalari. Be‘manilikka olib kelish usulining mohiyati.

12-mavzu: Murakkab mulohazalarga asoslangan sillogistik xulosa chiqarish va uning turlari

Murakkab mulohazalarga asoslangan sillogistik xulosa chiqarishning tuzilishi. Sof shartli va shartli qat’iy xulosa chiqarish. Sof ayiruvchi va ayiruvchi qat’iy xulosa chiqarish. SHartli-ayiruvchi xulosa chiqarish: dilemma, trilemma, polilemma. Oddiy konstruktiv va oddiy destruktiv dilemma. Murakkab konstruktiv va murakkab destruktiv dilemma.

13-mavzu: Induktiv xulosa chiqarish

Induktiv xulosa chiqarishning umumiy tavsifi. Induktiv xulosa chiqarishning to‘liq va to‘liqsiz induksiya tiplari. Induktiv yo‘l bilan umumlashtirishning ehtimoliy xarakteri. To‘liq va to‘liqsiz induksiya. Sababiy aloqadorlik, uning asosiy xususiyatlari. Statistik xulosa chiqarish. Matematik induksiya tushunchasi.

14-mavzu: Analogiya. Abduksiya

Analogiyaning tuzilishi va turlari. Analogiyada xulosaning ehtimollik darajasini oshirish shartlari. Analogiya bilish metodi sifatida. Analogiya bo‘yicha xulosa chiqarish-modellashtirish metodining mantiqiy asosi. Modellarning turlari. Analogiyaning evristik funksiyasi. Abduktiv xulosa chiqarishning mohiyati.

15-mavzu: Ilmiy bilishning mantiqiy shakllari. Gipoteza va nazariya

Ilmiy bilishning o‘ziga xosligi. Muammoli vaziyat- ilmiy bilish jarayonida ziddiyatlarning namoyon bo‘lish shakli sifatida. Muammoli vaziyatning vujudga kelishi. Ilmiy muammoni qo‘yish va xal qilish. Gipoteza va uning turlari.

2-modul

II SEMESTR

MANTIQUIY PRAGMATIKA

1-mavzu: Dalillash va formal isbotlash

Isbotlash tushunchasi. Isbotlashning tuzilishi: tezis, asoslar, demonstratsiya(isbotlash usuli). Isbotlash turlari: Bevosita isbotlash va bilvosita isbotlash. Bilvosita isbotlash turlari. Isbotlash va dalillashning o‘zaro aloqadorligi.

2-mavzu: Dallilash va rad etish

Dallilash va rad etish. Rad etishning tuzilishi. Rad etishning turlari: tezisni rad etish, asolarni rad etish, isbotlash usullarini rad etish. Rad etish va tanqid. Tanqidning turlari: oshkora va yashirin tanqid. Mantiqiy paradoks.

3-mavzu: Argumentlash nutqiy faoliyat sifatida

Argumentlash tushunchasi. Nutq kommunikatsiya vositasi sifatida. Nutqiy faoliyatning strukturasi. Nutqiy aktlarning kommunikativ va interaksional jihatlari.

4-mavzu: Argumentlash va ishonch e'tiqodning shakllanish

Argumentlash va muloqot. Argumentlashda tushunish va fikrni qabul qilish, ma'qullash. Argumentlash va ishonch-e'tiqodning shakllanishi. Ishontirish jarayonining bosqichlari. Ishontirish vositalari. Ishonch-e'tiqodning shakllanishi bilan bog'liq dilemmalar.

5-mavzu: Argumentlash ijtimoiy-kommunikativ faoliyat sifatida

Argumentlashning mohiyati, strukturasi. Argumentlash jarayonining tarkibiy qismlari. Argumentlarning turlari. Ijtimoiy faoliyat sifatida argumentlashning o'ziga xosligi.

6-mavzu: Argumentativ diskursning strukturaviy tahlili

Argumentativ diskurs tushunchasi. Oddiy, murakkab va sodda argumentlash. Oddiy argumentlashning tasnifi. Argumentlash strukturasi chizmalari. Ifodalanmagan asoslar. Ifodalanmagan asoslarning va mantiqiy tahlili. Argumentlash strukturasi aniqlash algoritmi.

7-mavzu: Argumentlash usullari. Universal va kontekstual argumentlash.

Argumentlash usullarining tasnifi. Argumentlashning ratsional xarakteri. Nazariy va empirik argumentlash. Universal argumentlashning o'ziga xosligi. Argumentlashning demonstrativ usullari: gipotetik sillogizm, dizyunktiv sillogizm, dilemma. Argumentlashda analogiyaning qo'llanilishi. Auditoriyaning xolatiga ko'ra kontekstual argumentlarni tanlash.

8-mavzu: Argumentlashning kommunikativ strukturasi

Fikr, bilim, nuqtai nazar va qarash – argumentlashning elementlari sifatida. E'tiroz. Ijobiy va salbiy nuqtai nazar. Nuqtai nazarlarning farqlanishi. SHubha argumentativ diskursni tashkil etuvchi element va dialogning sharti sifatida.

9-mavzu: Argumentlashda chinlik va maqbullik

Argumentlarning chinlik va maqbulligiga ko'ra tasnifi. YOlg'on argumentlar, ularning belgilari. Kommunikatsiyada haqiqat va yolg'on dilemmasining mavjudlik sabablari. YOlg'onning ikki ko'rinishi va uni ajratish usullari. YOlg'on argumentlarning axloqiy asoslanishi, YOlg'on argumentlashni aniqlash.

10-mavzu: Baho va imperativlarni argumentlash. Axloqiy masalalarni argumentlash

Baho va imperativlar nuqtai nazarning asosi sifatida. Tasvirlash va baholash. Baholarning turalri. Baho va norma. Baholashda ikki hil standartlar. Baho va normalarning empirik va nazariy asoslanishi. Qadriyatlarni

argumentlashda baho va normalardan argument sifatida foydalanish. Axloqiy norma, tamoyillar nuqtai nazar va argument sifatida.

11-mavzu: Diniy masalalarni argumentlash

Diniy qadriyatlarni argumentlash jarayonida nuqtai nazar va argument sifatida qo'llanilishi. Islomiy qadriyatlarning uch guruhi: islomiy aqida bilan bog'liq qadriyatlar, shariat bilan bog'liq qadriyatlar, tariqat bilan bog'liq qadriyatlar. Diniy masalalarni argumentlashda naql, aql va hissiy argumentlarni qo'llash. Diniy masalalarni argumentlashda deduksiya, induksiya va analogiya usullaridan foydalanish.

12-mavzu: Falsafiy va badiiy argumentlash

Falsafiy argumentlash tushunchasi. Uning o'ziga xosligi. Falsafiy argumentlashda sog'lom aqlga murojaat qilish. Induksiya va analogiya falsafiy argumentlash usullari sifatida. Falsafiy argumentlashda deduksiyaning qo'llash. Aqliy eksperiment metodi. Bashorat falsafiy argumentlashning o'ziga xos usuli sifatida.

13-mavzu: Dialog kommunikatsiya vositasi. Dialogning turlari

Tafakkurlash ichki va tashqi dialog sifatida. Kommunikatsiya shakli sifatida dialogning o'ziga xosligi. Dialog va monolog. Dialogning asosiy tarixiy shakllari. Didaktik dialog – dialogning eng oddiy shakli sifatida. Intellektual dialoglar, ularning asosiy shakllari.

14-mavzu: Bahs dialogning shakli sifatida

Kommunikatsiya shakli sifatida bahsning o'ziga xosligi. Bahsda isbotlash shakli sifatida an'naviy yondashuv. Bahs nuqtai nazarlar to'qnashuvi sifatida. Bahsning olib borilishi va maqsadga ko'ratisnifi. Tinglovchilar bahsning uchinchi ishtirokchisi sifatida. Paradoks, paralogizm va sofizm. Evristik dialektikaning o'ziga xos tomonlari.

15-mavzu: Ilmiy bahs va kelishuv

Ilmiy munozara va uning bilishdagi ahamiyati. Munozarada terminlarni aniq ifoda qilishning zarurligi. Ratsional tanqidiy munozaraning ideal modeli va argumentlash amaliyoti. Kelishuv har qanday munozaraning dastlabki sharti va asosi. Ilmiy bahslarning o'ziga xosligi.

III. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar:

Seminar mashg'ulotlari Mantiq fani bo'yicha bilimlarni kengaytirishni va chuqurlashtirishni, talabalarining ilmiy tadqiqot ishlariga yo'naltirilgan, bilim qobiliyatlarini o'stirish, ma'ruzada bayon qilingan nazariy bilimlarni mustahkamlash maqsadida o'tkaziladi. Shuningdek, talabalarda yangi pedagogik texnologiyalarga ko'nikmalar xosil qilish va boshqalardan iborat.

1-modul. Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi.

1-mavzu: Mantiq ilmining maqsadi va vazifalari

- 2-mavzu: Bilish obyektlari: tavsifi va tasnifi
- 3-mavzu: Tilning mantiqiy tahlili va tuzilishi
- 4-mavzu: Tushunchaning mantiqiy strukturasi va asosiy xususiyatlari
- 5-mavzu: Tushunchalarni tariflash qoidalari
- 6-mavzu: Mulohazaning mantiqiy tahlili va ular o`rtasidagi munosabatlar
- 7-mavzu: Murakkab mulohazalarning chin bo`lish shartlari.
- 8-mavzu: Formal mantiq qonunlari
- 9-mavzu: Bevosita xulosa chiqarish mohiyati
- 10-mavzu: Deduktiv xulosa chiqarish mazmuni
- 11-mavzu: Mukammal va nomukammal sillogizmlarning mazmuni
- 12-mavzu: Murakkab mulohazalarga asoslangan sillogistik xulosa chiqarish turlari
- 13-mavzu: Induktiv xulosa chiqarish tasnifi
- 14-mavzu: Analogik xulosa chiqarish
- 15-mavzu: Ilmiy bilishning mantiqiy shakllari.

2-modul. Seminar mashg`ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi.

- 1-mavzu: Dalillash va formal isbotlash tushunchalari mazmuni
- 2-mavzu: Dallilash va rad etish mohiyati
- 3-mavzu: Argumentlash nutqiy faoliyat sifatida
- 4-mavzu: Argumentlash va ishonch e`tiqodning shakllanishi va tuzulishi
- 5-mavzu: Argumentlash ijtimoiy-kommunikativ faoliyat sifatida
- 6-mavzu: Argumentativ diskursning tuzilishi
- 7-mavzu: Argumentlash usullari va turlari
- 8-mavzu: Argumentlashning kommunikativ strukturasi va mazmuni
- 9-mavzu: Argumentlashda chinlik va maqbullik mazmuni
- 10-mavzu: Axloqiy masalalarni argumentlash asoslari
- 11-mavzu: Diniy masalalarni argumentlash mazmuni
- 12-mavzu: Falsafiy va badiiy argumentlash mazmun-mohiyati
- 13-mavzu: Dialog kommunikatsiya vositasi sifatida
- 14-mavzu: Bahs dilogning shakli sifatidagi imkoniyatlari
- 15-mavzu: Mantiqda ilmiy bahs va kelishuv asoslari

IV. Mustaqil ta`lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta`limdan ko`zlangan maqsad va vazifalar – bu talabalarda mustaqil bilim olish ko`nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Mustaqil ta`lim seminar mashg`ulotlariga tayyorgarlik ko`rishdan tashqari fan dasturida ko`rsatilmagan, ammo fan bo`yicha talabaning bilim doirasini kengaytiruvchi qo`shimcha mavzular doirasida berilgan topshiriqlarni bajarishni o`z ichiga oladi.

1-modul. Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Mantiq ilmining ahamiyati va formal mantiq asosiy qonunlarining amal qilishi bo'yicha esse yozing.
2. Tilning mantiqiy tahlili va nomlash nazariyasi haqida esse yozish
3. Tushunchani to'g'ri qo'llash mantiqiy tafakkurlashning muhim sharti bo'yicha ilmiy maqola yozish
4. Mulohazani mantiqiy tahlil qilish va ularning chin bo'lish shartlarini aniqlash haqida esse yozish
5. To'plamlar ustida amallarga va tushunchalarni umumlashtirish va chegaralashga oid mashqlarni echish bo'yicha ilmiy maqola yozish
6. Kundalik va ilmiy bilishda bevosita xulosa chiqarish usullarini qo'llash haqida esse yozish
7. Deduktiv xulosa chiqarishning nazariy asoslari bo'yicha ilmiy maqola yozish
8. Qisqartirilgan va murakkab qisqartirilgan sillogizmlardan muhokama yuritish jarayonida foydalanish haqida esse yozish
9. Nodemonstrativ xulosa chiqarishning bilish jarayonida qollanilishi bo'yicha ilmiy maqola yozish
10. Ilmiy bilishda muammo, gipoteza va nazariya haqida esse yozish
11. Induktiv xulosa chiqarish asoslari bo'yicha ilmiy maqola yozish
12. Formal mantiq qonunlari haqida esse yozish

2-modul. Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Argumentlash va ishonch e'tiqodning shakllanishi bo'yicha taqdimot tayyorlash
2. Argumentativ diskursning strukturaviy tahlili bo'yicha ilmiy maqola yozish
3. Argumentlashning kommunikativ strukturasi bo'yicha taqdimot tayyorlash
4. Argumentlashda chinlik va maqbullik bo'yicha ilmiy maqola yozish
5. Baho va imperativlarni argumentlash bo'yicha taqdimot tayyorlash
6. Diniy masalalarni argumentlash bo'yicha taqdimot tayyorlash
7. Falsafiy argumentlash bo'yicha taqdimot tayyorlash
8. Badiiy argumentlash bo'yicha ilmiy maqola yozish
9. Axloqiy masalalarni argumentlash bo'yicha taqdimot tayyorlash
10. Suhbatlashish san'ati bo'yicha ilmiy maqola yozish
11. Bahs-munozara o'tkazish shartlari bo'yicha taqdimot tayyorlash
12. Savol-javob texnikasida argumentlashda foydalanish bo'yicha ilmiy maqola yozish
13. Ritorik argumentlash bo'yicha taqdimot tayyorlash

	14. Virtual muloqotda argumentlash bo'yicha ilmiy maqola yozish 15. Ilmiy bahs va kelishuv bo'yicha taqdimot tayyorlash
4.	V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: – o'quv fani bo'yicha aniq bilim va tasavvurga ega bo'lgan, mustaqil ijodiy fikrlay oladigan, bilimlarni amaliyotga qo'llay oladigan bo'lishi; – bakalavriatning mos yo'nalishi bo'yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi; – mantiqaning fan sifatidagi mohiyati, uning kategorial apparati va rivojlanish qonuniyatlarini; mantiqning nazariy masalalari va tarixiy-metodologik manbalarini; mantiqiy dunyoqarashni yuksaltirishning fundamental asoslarini hamda mantiq fanining jamiyat ma'naviy hayotidagi o'rnini <i>bilishi kerak</i>. – mantiqiy tafakkur tarixini o'rganish va uni xolisona baholash; mumtoz va zamonaviy mantiqiy qarashlarni tahlil qilish; voqelikka oqilona mantiqiy munosabat bildirish va sodir bo'layotgan hodisalarning mantiqiy bo'g'liqligini tushuntira olish; mulohaza, analogiya, sillogizm, argumentlash asoslari, muammo, paralogizm borasidagi umumiy qonuniyatlarini o'zlashtirish <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak</i>. – mantiqiy tafakkur tizimidagi o'zgarishlar va funksional masalalarni qiyosiy tahlil qilish; mantiqiy tafakkurni rivojlantirishga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni farqlash, mantiqiy tafakkurni yuksaltirish va fahm-farosat hissini uyg'unlashtirishga doir amaliy takliflar ishlab chiqish <i>malakalariga ega bo'lishi kerak</i>.
5.	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • ma'ruzalar; • seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlar qilish;
6.	VII. Kreditlarni olish uchun talabalar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar va tushunchalar haqida mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha belgilangan test yoki yozma ishni topshirishi zarur.
7.	Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari Asosiy adabiyotlar

	1. Sharipov M., Fayzixo'jayeva D. M.Safarboyeva. Mantiq. O'quv qo'llanma – Toshkent: Universitet, 2008. –B.180. 2. To'rayev B. Logika: masala va mashqlar. O'quv qo'llanma – Toshkent: Tafakkur, 2009. –B.128. 3.Komilov B. Mantiq. O'quv qo'llanma – Toshkent: Kafolat print company, 2019. –B.152. 4. Fayzixo'jaeva D. Argumentlash va kommunikatsiyalash. Darslik–Toshkent.: Ma'rifat, 2024. –B 252. 5. https://www.ucl.ac.uk/module-catalogue/modules/introduction-to-logic-1-PHIL0005 6. https://www.ucl.ac.uk/module-catalogue/modules/introduction-to-logic-2-PHIL0004 Zamonaviy xorijiy adabiyotlar 5. Dov M.Gabbay, John Woods(eds). Handbook of the history of logic. Vol. 1. 2004. 6. Khaled El-Rowayheb. The development of arabik logic 1200-1800. // Printed in Germany. ISBN Ebook.(PDF) 987-7965-3937-4. 7. Morris R., Ernest Nagel. An introduction to logic and scientific method. New York. 2007. Qo'shimcha adabiyotlar: 8. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Тошкент.: Ўзбекистон. 2021. –Б. 454 9. Упражнения по логике. // Под ред. Л.Г.Тоноян. –М.: Проспект, 2014. 10. Файзихўжаева Д. Абу Наср Форобий ва Абу Али ибн Сино мантикий исботлаш ҳақида. –Т., 2013. 11. Файзихўжаева Д. Мантиқ: изоҳли луғат. – Тошкент. 2015. Elektron manbalar 12. www. ziyouz.uz. 13. www. zionet. 14. www. pedagog.uz. 15. www.edu.uz
8.	Fan dasturi Qo'qon davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet kengashining 2025-yil 29-avgustdagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan.
9.	Fan/ modul bo'yicha mas'ullar: G'.Otajonov – Qo'qon DU, Falsafa va dinshunoslik kafedrası o'qituvchisi
10.	Taqrizchi:

	I.Siddiqov – FarDU, Falsafa va milliy g`oya kafedrası dotsenti, falsafa fanlari doktori(DSc).
--	---